

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

IZCHILLIK TAMOYILI TALABALARNING KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Bozorova Muazzam Hamid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, tadqiqotchi.

e-mail: muazzambozorova@gmail.ru ORCID:

Annotatsiya.

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida izchillik tamoyilining talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirishdagi ahamiyati pedagogik va didaktik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Izchillik tamoyili ta'lim mazmunining tizimliliigi, uzviyligi va mantiqiy ketma-ketligini ta'minlovchi muhim didaktik asos sifatida yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uzluksiz ta'lim tamoyillari asosida kasbiy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, izchillik tamoyiliga asoslangan kasbiy tayyorgarlik modelining afzalliklari hamda oliy ta'lim amaliyotida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: izchillik tamoyili, kasbiy sifat, kasbiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, oliy ta'lim, pedagogik texnologiya, uzluksiz ta'lim, didaktik tamoyillar, kasbiy rivojlanish.

ПРИНЦИП ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО ЗНАЧИМЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ

Бозорова Муаззам Хамид кизи

Ташкентский государственный экономический университет, исследователь.

Аннотация.

В данной статье с педагогической и дидактической точек зрения анализируется значение принципа последовательности в формировании профессиональных качеств студентов в системе высшего образования. Принцип последовательности рассматривается как важнейшая дидактическая основа, обеспечивающая системность, преемственность и логическую последовательность содержания образования. В исследовании раскрываются механизмы развития профессиональных качеств на основе компетентного подхода, современных педагогических технологий и принципов непрерывного образования. Кроме того, представлены преимущества модели профессиональной подготовки, основанной на принципе последовательности, а также разработаны практические рекомендации по её применению в системе высшего образования.

Ключевые слова: принцип последовательности, профессиональные качества, профессиональная компетентность, компетентный подход, высшее образование, педагогическая технология, непрерывное образование, дидактические принципы, профессиональное развитие.

THE PRINCIPLE OF CONSISTENCY AS A FACTOR IN DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONALLY SIGNIFICANT QUALITIES

Bozorova Muazzam Hamid qizi

Tashkent State University of Economics, Researcher.

Abstract.

This article analyzes the significance of the principle of sequence in the formation of students' professional qualities in the higher education system from pedagogical and didactic perspectives. The principle of sequence is considered an essential didactic foundation that ensures the systematic nature, continuity, and logical progression of educational content. The study reveals the mechanisms for developing professional qualities based on the competency-based approach, modern pedagogical technologies, and the principles of lifelong learning. In addition, the advantages of a professional training model based on the principle of sequence are presented, and practical recommendations for its implementation in the higher education system are developed.

Keywords: principle of sequence, professional qualities, professional competence, competency-based approach, higher education, pedagogical technology, lifelong education, didactic principles, professional development.

Kirish. Globallashuv, raqamli iqtisodiyot va mehnat bozorining tezkor o'zgarishlari oliy ta'lim oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi nafaqat nazariy bilimlarni egallagan, balki kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan mutaxassislarini tayyorlashdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonini ilmiy asoslangan didaktik tamoyillar asosida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Izchillik tamoyili ana shunday fundamental tamoyillardan biri bo'lib, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni oddiydan murakkabga, nazariyadan amaliyotga, reproduktiv faoliyatdan ijodiy faoliyatga bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Izchillik tamoyiliga amal qilish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish, bilimlarning mustahkamligini ta'minlash, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirish hamda bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Didaktik tamoyillar va ta'limning izchilligi masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mahalliy olimlardan N. Sayidahmedov, R. Ishmuhamedov, N. Avliyokulov va O'. Tolipovlarning ilmiy ishlarida ta'limning tizimlili, uzluksizligi hamda pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida ta'lim jarayonini loyihalash, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion metodlarning afzalliklari asoslab berilgan.

MDH olimlaridan V. Bepalko, M. Klarin, I. Zimnyaya va A. Xutorskoy ta'lim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning ilmiy qarashlarida bilimlarning tizimli rivojlanishi va kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Xorijiy olimlardan John Dewey, Jerome Bruner, David Kolb, Benjamin Bloom, Robert M. Gagne, Donald Schön, Philippe Perrenoud, Linda Darling-Hammond va boshqalarning ishlarida ta'limdagi izchillik va uzluksiz tajribaning shaxsning kasbiy rivojlanishiga xizmat qilishi, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda izchil refleksiya va amaliyotning muhimligi, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni izchil rivojlantirish tamoyillari, o'qitishda ketma-ketlik va tizimlilik kasbiy sifatlarni shakllantirishning muhim omili ekanligiga oid masalalar batafsil tadqiq etilgan.

Biroq izchillik tamoyilining aynan talabalarning kasbiy sifatlarni shakllantirishdagi metodik imkoniyatlari va uni zamonaviy oliy ta'lim sharoitida amalga oshirish mexanizmlari hali ham chuqur tadqiq etilishi zarur bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish, umumlashtirish va modellastirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar izchillik tamoyilining kasbiy sifatlarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini kompleks baholashga xizmat qildi.

Muhokama.

Oliy ta'lim amaliyotida ayrim hollarda o'quv fanlari mazmuni va ularni o'qitish metodikasi o'rtasidagi uzviylikning yetarli darajada ta'minlanmagani kuzatiladi. Natijada talabalar alohida mavzularni o'zlashtirsalar-da, ularni yagona kasbiy faoliyat tizimiga integratsiya qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Shuningdek, zamonaviy mehnat bozori mutaxassisdan faqat bilim emas, balki kasbiy moslashuvchanlik, kommunikativlik, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, raqamli kompetensiyalar va innovatsion fikrlashni ham talab qilmoqda. Ushbu sifatlarni shakllantirish esa izchil tashkil etilgan ta'lim jarayonini talab etadi.

Shu sababli izchillik tamoyilining kasbiy sifatlarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish bugungi kunning dolzarb ilmiy muammolaridan biridir.

Izchillik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim didaktik tamoyillaridan biri bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarning mantiqiy ketma-ketlikda, tizimli hamda uzluksiz shakllanishini ta'minlaydi. Mazkur tamoyilga ko'ra, har bir yangi bilim avval o'zlashtirilgan bilimlarga tayanadi va keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu tariqa ta'lim mazmunida uzviylik va mantiqiy bog'liqlik yuzaga keladi.

Oliy ta'lim sharoitida izchillik tamoyili quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- o'quv fanlari mazmunining ketma-ketligi;
- nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi;
- auditoriya va mustaqil ta'limning o'zaro uyg'unligi;
- bilimlarni muntazam baholash va tahlil qilish;
- kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Mazkur tamoyil talabalarni murakkab kasbiy vazifalarni bajarishga bosqichma-bosqich tayyorlaydi hamda ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kasbiy sifatlarni mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishiga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarining yaxlit tizimidir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda kasbiy sifatlarni faqat nazariy tayyorgarlik bilan emas, balki amaliy faoliyat davomida shakllanadigan kompetensiyalar bilan ham belgilanadi.

Mazkur sifatlarning rivojlanishi izchil tashkil etilgan ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liq.

Bizning fikrimizcha, izchillik tamoyili asosida kasbiy sifatlarni rivojlantirish quyidagi besh bosqich orqali amalga oshiriladi.

1-bosqich. Motivatsion bosqich. Talabalarda kasbga qiziqish uyg'otiladi, kasbiy qadriyatlar shakllantiriladi va o'quv faoliyatining maqsadi anglatiladi. Ushbu bosqich keyingi rivojlanish uchun psixologik asos yaratadi.

2-bosqich. Kognitiv bosqich. Talabalar fundamental va maxsus fanlar bo'yicha tizimli bilimlarni egallaydilar.

Bilimlar oddiy tushunchalardan murakkab ilmiy kategoriyalargacha izchil rivojlantiriladi.

3-bosqich. Amaliy-faoliyat bosqichi. Nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, pedagogik amaliyot, loyihalar va kasbiy vaziyatlar orqali mustahkamlanadi.

4-bosqich. Refleksiv bosqich. Talabalar o'z faoliyatini baholaydilar, xatolarini tahlil qiladilar va o'z ustida ishlash yo'nalishlarini belgilaydilar. Bu bosqich kasbiy o'sishning muhim omili hisoblanadi.

5-bosqich. Innovatsion bosqich. Talabalar zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali kasbiy faoliyatni takomillashtirishga yo'naltiriladi. Natijada innovatsion fikrlash va kasbiy moslashuvchanlik rivojlanadi. Kasbiy sifatlarning asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat? Uni quyida jadval shaklda keltirib o'tamiz:

Tarkibiy qism	Mazmuni
Kasbiy bilim	Mutaxassislik bo'yicha nazariy bilimlarni egallash
Kasbiy ko'nikma	Bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olish
Kasbiy malaka	Kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish tajribasi
Kasbiy mas'uliyat	Qarorlar uchun javobgarlikni his etish
Kommunikativ kompetensiya	Samarali muloqot va jamoada ishlash
Kreativlik	Yangi g'oyalarni ilgari surish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish
Raqamli kompetensiya	Zamonaviy AKT vositalaridan samarali foydalanish
Refleksiv kompetensiya	O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish


Izchillik tamoyilini amalga oshirishning pedagogik shartlarini aniqlash va ular asosida jarayonning tashkil etilishi ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Biz o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, izchillik tamoyilining samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarga bog'liqligi aniqlandi:

- ta'lim maqsadlarining aniq belgilanishi;
- o'quv dasturlarining uzviyligi;
- kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash;
- interfaol metodlardan foydalanish;
- muntazam diagnostik baholash;
- refleksiya va o'z-o'zini baholashni yo'lga qo'yish;
- raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish.

Mazkur shartlarning uyg'unligi talabalarning kasbiy sifatlarni samarali shakllantirish imkonini beradi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi konseptual model taklif etiladi (1-rasm).



1-rasm. Talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirishning konseptual modeli.

Mazkur model shuni ko'rsatadiki, izchillik tamoyili kasbiy sifatlarni rivojlantirishning boshlang'ich omili bo'lib, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini yagona tizimga birlashtiradi. Natijada nazariy bilimlar amaliy kompetensiyalarga, kompetensiyalar esa kasbiy mahorat va raqobatbardoshlikka aylanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida izchillik tamoyilining talabalarning kasbiy sifatlarni rivojlantirishga ta'sirini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqotda shartli ravishda tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirildi. Tajriba guruhida ta'lim jarayoni izchillik tamoyili asosida ishlab chiqilgan metodika bo'yicha tashkil etildi, nazorat guruhida esa

amaldagi o'qitish tizimi saqlab qolindi.

Kasbiy sifatlarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirildi:

- kasbiy bilim darajasi;
- amaliy ko'nikmalar;
- mustaqil ta'lim faoliyati;
- kommunikativ kompetensiya;
- kasbiy mas'uliyat;
- refleksiv faoliyat.

Har bir mezon uch daraja (yuqori, o'rta va past) bo'yicha baholandi.

Olingan natijalar izchillik tamoyiliga asoslangan o'qitish talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, mustaqil ishlash, kasbiy mas'uliyat va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, izchillik tamoyili asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida:

- o'quv materiallari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik kuchaydi;
- nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalari rivojlandi;
- talabalarining o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish ko'nikmalari shakllandi;
- kasbiy motivatsiya va ta'limga qiziqish oshdi;
- jamoada ishlash va kasbiy muloqot madaniyati rivojlandi.

Shuningdek, izchil tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarining tanqidiy fikrlashi, kreativ yondashuvi va kasbiy muammolarni hal etish kompetensiyalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim fan dasturlarini izchillik tamoyili asosida qayta loyihalash.
2. Nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda tashkil etish.
3. Har bir modul yakunida refleksiv tahlil va o'z-o'zini baholash elementlarini joriy etish.
4. Raqamli ta'lim platformalari orqali ketma-ket va tizimli o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish.
5. Kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini takomillashtirish.
6. Talabalarini loyiha va tadqiqot faoliyatiga muntazam jalb etish.

Xulosa

Izchillik tamoyili talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirishning muhim pedagogik omili hisoblanadi. Mazkur tamoyil asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bilim, ko'nikma va malakalarning tizimli rivojlanishini ta'minlaydi, nazariya hamda amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari izchillik tamoyilini qo'llash talabalarining kasbiy kompetensiyalari, mustaqil ta'lim ko'nikmalari, kasbiy mas'uliyati va innovatsion fikrlashini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini rejalashtirish, fan dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim natijalarini baholashda izchillik tamoyiliga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chorieva Z. T. Development of Professional Competence as an Important Task of the Higher Education Process // Current Research Journal of Pedagogics. – Vol. 3. – Issue 9. – P. 74–81.
2. Raximov Z. T. Ta'lim jarayonida talabalar o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish // Zamonaviy ta'lim. – 2020. – No. 3. – B. 3–10.
3. Xakimova M. F., Karimova F. X. Methodology of Formation of Students' Professional Competence Based on Innovative Approach // E-Journal Bumi Publikasi Nusantara [Electronic resource]. – URL: <https://www.ejournal.bumipublikasinusantara>.
4. Boltakov S. Formation of Professional Competence of Students in an Innovative Educational Environment // The Light of Civilization. – 2025. – Vol. 6. – No. 69.
5. Bozorova M. H. Kredit ta'lim sharoitida talabalarining kasbiy sifatlarini izchillik tamoyili asosida shakllantirish metodikasi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – No. 2. – B. 97–100.